



**JUDICIAL AUTHORITY. PROSECUTOR'S SUPERVISION.
ORGANIZATION OF LAW ENFORCEMENT ACTIVITIES.
ADVOCACY**

Salayev Bobur Allanazarovich

Head of the private law firm "Elita-himoya"
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17213801>

ARTICLE INFO

Received: 19th September 2025

Accepted: 26th September 2025

Online: 27th September 2025

KEYWORDS

Law enforcement agencies of the Republic of Uzbekistan, Court, Justice, Prosecutor's Office, State Security Service.

ABSTRACT

This article analyzes the system of law enforcement agencies of the Republic of Uzbekistan, their tasks and areas of activity. Law enforcement agencies perform such important tasks as ensuring the rule of law in society, protecting the rights and freedoms of citizens, and maintaining state security. The article examines the legal framework for the activities of the main law enforcement agencies, including the Ministry of Internal Affairs, the Prosecutor's Office, the State Security Service, the Judiciary, and other institutions. The article also covers their mutual cooperation and the process of reforms. The results of this study are aimed at developing proposals and recommendations for further improving the legislation and legal system in Uzbekistan. I believe that the article will serve as a useful resource for lawyers, researchers, and those interested in the field.

**СУДЕБНАЯ ВЛАСТЬ. ПРОКУРОРТНЫЙ НАДЗОР. ОРГАНИЗАЦИЯ
ПРАВООХРАНИТЕЛЬНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ. АДВОКАТИНГ**

Салаев Бобур Алланазарович

Руководитель частной юридической фирмы «Элита-химоя»
<https://doi.org/10.5281/zenodo.17213801>

ARTICLE INFO

Received: 19th September 2025

Accepted: 26th September 2025

Online: 27th September 2025

KEYWORDS

Правоохранительные органы Республики Узбекистан, суд, правосудие, прокуратура, Служба государственной безопасности.

ABSTRACT

В данной статье анализируется система правоохранительных органов Республики Узбекистан, их задачи и направления деятельности. Правоохранительные органы выполняют такие важные задачи, как обеспечение законности в обществе, защита прав и свобод граждан, обеспечение государственной безопасности. В статье рассматривается правовая база деятельности основных правоохранительных органов, включая Министерство внутренних дел,



прокуратуру, Службу государственной безопасности, судебные органы и другие учреждения. Также освещается их взаимодействие и ход реформ. Результаты данного исследования направлены на разработку предложений и рекомендаций по дальнейшему совершенствованию законодательства и правовой системы Узбекистана. Полагаю, что статья будет полезна юристам, исследователям и всем интересующимся данной областью.

SUD HOKIMIYATI. PROKUROR NAZORATI. HUQUQNI MUHOFAZA QILISH FAOLIYATINI TASHKIL ETISH. ADVOKATURA

Salayev Bobur Allanazarovich

“Elita-himoya” xususiy advokatlik byurosi rahbari

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17213801>

ARTICLE INFO

Received: 19th September 2025

Accepted: 26th September 2025

Online: 27th September 2025

KEYWORDS

O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlari, Sud, Adliya, Prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati.

ABSTRACT

Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qiluvchi organlari tizimi, ularning vazifalari va faoliyat yo'nalishlari tahlil qilinadi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar jamiyatda qonun ustuvorligini ta'minlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda davlat xavfsizligini saqlash kabi muhim vazifalarni bajaradi. Maqolada huquqni muhofaza qiluvchi asosiy organlar, jumladan, Ichki ishlar vazirligi, Prokuratura, Davlat xavfsizlik xizmati, Sud hokimiyati hamda boshqa muassasalar faoliyatining huquqiy asoslari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, maqolada ularning o'zaro hamkorligi va islohotlar jarayoni ham yoritiladi. Ushbu tadqiqot natijalari O'zbekistonda qonunchilik va huquqiy tizimni yanada takomillashtirish yo'lida taklif va tavsiyalarni ishlab chiqishga qaratilgan. Maqola huquqshunoslar, tadqiqotchilar va sohaga qiziquvchilar uchun foydali manba bo'lib xizmat qiladi deb o'ylayman.

Huquqni muhofaza qilish organlari — qonuniylik va huquqiy tartibotni muhofaza qilish, inson huquqlari va erkinliklarini himoyalash, jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurash bilan shug'ullanuvchi idoralar.

O'zbekiston Respublikasida Huquqni muhofaza qilish organlariga quyidagilar kiradi: Sudlar (O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, Oliy sudga bo'ysunuvchi



umumiy yurisdiksiyadagi sudlar, xo'jalik sudlari); Sudlarning faoliyatini tashkiliy va moddiy-texnik jihatdan ta'minlashni amalga oshiradigan organlar (O'zbekiston Respublikasi Prezi-denti huzuridagi Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tavsiya etish bo'yicha oliy malaka komissiyasi; Adliya vazirligi huzuridagi sud qarorlarini ijro etish, sudlar faoliyatini moddiy, texnik va moliyaviy jihatdan ta'minlash departamenti) Prokuratura; Jinoyatlarni fosh etish va tergov qilishga jalb qilingan organlar (surishtiruv va dastlabki tergov hamda tergovga qadar surishtiruv organlari), Notarial faoliyatni amalga oshiruvchi organlar (notariat va boshqalar); Advokatura bularga yaqqol misol bo'ladi.

Endilikda huquqni muhofaza qilish organlarining vazifalari va faoliyat yo'nalishlari bilan tanishib chiqsak. Sudning asosiy vazifalari fuqarolarning O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa qonunlari, xalqaro shartnomalarida, shuningdek inson huquqlari to'g'risidagi xalqaro hujjatlarda kafolatlangan huquqlari hamda erkinliklarini, davlat va jamoat manfaatlarini, yuridik shaxslar hamda yakka tartibdagi tadbirkorlarning huquqlari va qonun bilan qo'riqlanadigan manfaatlarini himoya qilishdan iborat. Sudning faoliyati qonun ustuvorligini, ijtimoiy adolatni, fuqarolar tinchligi va totuvligini ta'minlashga qaratilgandir. O'zbekiston Respublikasida quyidagi Sud organlari mavjud. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi, O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi, harbiy sudlar, Qoraqalpog'iston Respublikasi sudi, viloyatlar va Toshkent shahar sudlari, Qoraqalpog'iston Respublikasi ma'muriy sudi, viloyatlar va Toshkent shahar ma'muriy sudlari, fuqarolik ishlari bo'yicha tumanlararo, tuman, shahar sudlari, jinoyat ishlari bo'yicha tuman, shahar sudlari; tumanlararo, tuman, shahar iqtisodiy sudlari, tumanlararo ma'muriy sudlardan iboratdir. O'zbekiston Respublikasida Prokuratura organlari ham asosiy huquqni muhofaza qiluvchi organlardan biri hisoblanadi. Prokuratura organlari faoliyatining asosiy yo'nalishlari va vazifalari haqida quyida qisqacha ma'lumotlar berib o'tilgan. Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish, fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida, vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarning harbiy tuzilmalarida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat qilish, tezkor-qidiruv faoliyatni, tergovga qadar tekshiruvni, surishtiruvni, dastlabki tergovni amalga oshiradigan organlar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish hamda ularning jinoyatchilikka qarshi kurash borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish, jinoyatlar yuzasidan dastlabki tergov olib borish, sudlarda jinoyat ishlari ko'rib chiqilayotganda davlat ayblovini quvvatlash, sudlarda fuqarolik ishlarini, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni hamda iqtisodiy nizolarni ko'rishda ishtirok etish, qonunlarga zid bo'lgan sud hujjatlariga protest keltirish, soliq intizomini mustahkamlashga, soliq, valyuta sohasidagi jinoyatlar va huquqbuzarliklarga qarshi kurashga, shuningdek davlatga etkazilgan iqtisodiy zararni qoplashga qaratilgan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish, ushlab turilganlarni, qamoqqa olinganlarni saqlash joylarida, jinoiy jazolarni va jinoyat-huquqiy ta'sirning boshqa choralarini ijro etish chog'ida qonunlarga rioya etilishi ustidan nazorat



qilish, qonun ijodkorligi faoliyatida hamda jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish ishida ishtirok etish va O'zbekiston Respublikasi qonunlari hamda O'zbekiston Respublikasining asosiy qonuni bo'lgan, konstitutsiyamizda nazarda tutilgan boshqa shu kabi vazifalarni bajaradi.

Davlat xavfsizlik xizmati davlat xavfsizligini ta'minlash maqsadida o'z faoliyatini mahsus vositalar, shaklar va uslublar bilan amalga oshiradigan mahsus vakolatli davlat organidir. Davlat xavfsizlik xizmati davlat xavfsizligini ta'minlash sohasida yagona davlat siyosatini amalga oshiradi va o'z vakolatlari doirasida quyidagi asosiy yunalishlar bo'yicha o'z faoliyatini olib boradi.

O'zbekiston Respublikasining davlat xavfsizligini va davlat manfaatlari tashqi hamda ichki tahdidlardan himoya qilinishini ta'minlash, mazkur sohada qonuniylik va qonun ustuvorligini mustahkamlash, huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berish. O'zbekiston Respublikasining konstitutsiyasi tuzumi, suverinetetini va hududiy yaxlitligiga bo'lgan tajovuzlarning oldini olish, ularni aniqlash hamda ularga barham berish bo'yicha razvedka va kontrrazvedka faoliyatini amalga oshirish. O'zbekiston Respublikasining davlat chegarasini qo'riqlash va himoya qilish va shu kabi faoliyatining asosiy yo'nalishlari hamda vazifalarini amalga oshiradi.

Advokatura — huquqiy institut bo'lib, u advokatlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda xususiy advokatlik amaliyoti bilan shug'ullanuvchi ayrim shaxslarning mustaqil, ko'ngilli, kasbiy birlashmalarini o'z ichiga oladi. Advokatura O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga muvofiq O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, ajnabiy fuqarolar, fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga, korxonalar, muassasalar, tashkilotlarga yuridik yordam ko'rsatadi.

O'zbekiston Respublikasining Ichki ishlar organlari (IIV organlari) ham huquqni muhofaza qilish organlarining bir qismi hisoblanadi. Ichki ishlar organlari quyidagi vazifalarni amalga oshiradi. Jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash, tergovga qadar tekshiruvni, tezkor-qidiruv faoliyatini amalga oshirish, jinoyat ishlari bo'yicha surishtiruv hamda dastlabki tergovni o'tkazish, jinoyatchilik va terrorizmga qarshi kurashish, shu jumladan terrorchilik harakatlariga chek qo'yishda hamda garovga olinganlarni ozod qilishda ishtirok etish yo'li bilan kurashish, shuningdek odam savdosiga qarshi kurashish, ehtiyot choralari, jinoiy jazoni va jinoiy-huquqiy ta'sir ko'rsatishning boshqa choralari ijro etish, shuningdek shaxslarni qidirish bo'yicha ishlarni tashkil etish, ma'muriy huquqbuzarliklar to'g'risidagi ishlarni yuritish, ma'muriy jazolarni qo'llash to'g'risidagi qarorlarni ijro etish, yo'l harakati xavfsizligini ta'minlash, pasport tizimi talablarining bajarilishini ta'minlash, O'zbekiston Respublikasidan chiqish va unga kirish uchun zarur bo'lgan hujjatlarni, doimiy va vaqtincha yashash uchun ruxsatnomalarni berishga hamda rasmiylashtirishga doir ishlarni, pasport tizimiga va O'zbekiston Respublikasi hududida bo'lish qoidalariga rioya etilishi ustidan nazorat qilishni amalga oshirish, sanoat uchun mo'ljallangan portlovchi materiallarning, shuningdek pirotexnika buyumlarining, giyohvandlik vositalarining, psixotrop moddalarning va ular prekursorlarining muomalada bo'lishi sohasida nazorat qilish, ekspert-kriminalistika faoliyatini amalga oshirish, davlat ob'ektlarini, o'ta muhim, toifalangan ob'ektlarni va boshqa ob'ektlarni, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-



mulkini qo'riqlash, harbiy-safarbarlik ishlarini va fuqaro muhofazasi tadbirlarini amalga oshirish va boshqa o'z vakolatlari doirasidagi vazifalarni amalga oshiradi. Bizni yana bir huquqni muhofaza qiluvchi organimiz mavjud va bu ham bo'lsa O'zbekiston Respublikasining Adliya organlaridir. O'zbekiston Respublikasidagi adliya organlari, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatiga ko'maklashuvchi yani yordam beruvchi davlat organi hisoblanadi. Adliya organlari vazifalari quyidagilardir. Davlat boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlarining norma ijodkorligi masalalari bo'yicha faoliyatini muvofiqlashtiradi va ularga uslubiy rahbarlikni amalga oshiradi, norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha takliflar ishlab chiqadi, ularning amalga oshirilishini ta'minlaydi, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining topshiriqlari bo'yicha va o'z tashabbusiga ko'ra qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqadi va ularni ko'rib chiqish uchun belgilangan tartibda kiritadi, davlat boshqaruvi organlari tomonidan qonun loyihalarini tayyorlashning zarurligi masalalari bo'yicha oldindan kelishishni amalga oshiradi, qonunlar va boshqa normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ularning O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, qonun hujjatlariga, mamlakatda olib borilayotgan islohotlarning maqsad va vazifalariga, shuningdek qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligini aniqlash yuzasidan tahlil qiladi va huquqiy ekspertizadan o'tkazadi va qonunga muvofiq boshqa vazifalarni amalga oshiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qiluvchi organlari tizimi, ularning vazifalari, faoliyat yo'nalishlari va huquqiy asoslari batafsil tahlil qilindi. O'zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlarining asosiy vazifalari qonun ustuvorligini ta'minlash, inson huquq va erkinliklarini himoya qilish hamda jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarning oldini olishdan iboratdir. Sud organlari fuqarolarning huquqlarini, davlat va jamoat manfaatlarini himoya qiladigan hamda ijtimoiy adolatni qaror toptiradigan mustaqil tuzilma sifatida alohida ahamiyatga ega. Prokuratura organlari qonun ustuvorligini ta'minlash va ijro etilishini nazorat qilishda, shuningdek, davlat ayblovini qo'llab-quvvatlashda muhim rol o'ynaydi. Davlat xavfsizlik xizmati davlat manfaatlarini ichki va tashqi tahdidlardan himoya qilish, shu jumladan razvedka va kontrrazvedka faoliyatlarini amalga oshirish orqali mamlakat xavfsizligini ta'minlaydi. Ichki ishlar organlari jamoat xavfsizligini ta'minlash, jinoyatchilikka qarshi kurashish, shaxslarni qidirish va ma'muriy huquqbuzarliklarni bartaraf etish bilan shug'ullanadi. Adliya organlari esa norma ijodkorligi jarayonida ko'maklashish, qonun loyihalarini ishlab chiqish va huquqiy ekspertiza o'tkazish orqali huquqiy tizimni rivojlantirishga hissa qo'shadi. Ushbu organlarning samarali faoliyati davlat boshqaruvi va fuqarolik jamiyati uchun mustahkam huquqiy asos yaratib, ijtimoiy adolat, qonuniylik va huquqiy tartibotni mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'zaro hamkorlik va zamonaviy islohotlar huquqni muhofaza qilish tizimini takomillashtirishda muhim omil bo'lib, qonunchilikni rivojlantirish va xalqaro standartlarga moslashishga zamin yaratadi. Shu sababli, huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining uzluksiz takomillashuvi O'zbekistonning barqaror rivojlanishi va fuqarolarining huquqiy manfaatlarini ta'minlashning garovidir.



References:

1. <https://uz.wikipedia.org> O'zbekiston Respublikasining huquqni muhofaza qilish organlari.
2. <https://advice.uz>
3. <https://lex.uz/docs/-5534923> O'zbekiston Respublikasining " sudlar " to'g'risidagi qonuni.
4. <https://lex.uz/acts/-106197> O'zbekiston Respublikasining " Prokuratura organlari " to'g'risidagi qonuni.
5. O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari" to'g'risidagi qonuni
6. O'zbekiston Respublikasining "Adliya organlari" to'g'risidagi qonuni